

SHUKUROV Yorgin Alidjanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrası
dotsenti v.b.

TUNIS SHOIRI ABULQOSIM ASH-SHABBIY IJODI VA POETIKASI

ТВОРЧЕСТВО И ПОЭТИКА ТУНИССКОГО ПОЭТА АБУЛКАСИМА АШ-ШАББИ

THE POETIC GENIUS AND CREATIVITY OF ABU AL-QASIM AL-SHABBI

Annotatsiya: Maqolada XX asr tunis adabiyotining porloq yulduzi, buyuk shoir Abulqosim ash-Shabbiyning hayoti va boy ijodiy merosi yoritiladi. Shoir o'zining qisqa umri davomida betakror ijodi bilan tunis adabiyotiga muhim hissa qo'shgan. Ash-Shabbiyning she'rlarida liriklik, romantizm va realizm uyg'unligi kuzatiladi. Uning ijodida Vatan, ozodlik, insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar markaziy o'rin tutadi. Maqolada shoir she'rlarining mavzulari, badiiy vositalari, uslubi va ularning tunis adabiyotiga ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, ash-Shabbiyning she'rlaridan ayrim parchalar keltiriladi va ularning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: arab adabiyoti, she'riyat, lirika, peyzaj, adabiy jarayon, ritorika, ruhiyat, tabiat tasviri.

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и богатое творческое наследие Абуль-Касима аш-Шабби, яркой звезды тунисской литературы XX века. Несмотря на свою короткую жизнь, поэт внес значительный вклад в развитие тунисской литературы своими уникальными произведениями. В поэзии аш-Шабби гармонично сочетаются лиризм, романтизм и реализм. Значительное место в его творчестве занимают такие общечеловеческие ценности, как любовь к Родине, свобода и гуманизм. Статья анализирует тематику стихотворений поэта, используемые им художественные средства, стиль и их влияние на тунисскую литературу. Также приводятся отрывки из стихотворений аш-Шабби и проводится анализ их художественных особенностей.

Ключевые слова: арабская литература, поэзия, лирика, пейзаж, литературный процесс, риторика, духовность, менталитет, описание природы.

Annotation: This article sheds light on the life and rich creative legacy of Abul Qasim al-Shabbi, a brilliant star of 20th-century Tunisian literature. Despite his short life, the poet made a significant contribution to Tunisian literature with his unique works. Al-Shabbi's poetry harmoniously combines lyricism, romanticism, and realism. Central to his works are universal values such as love for the homeland, freedom, and humanism. The article discusses the themes, artistic devices, style of the poet's poems, and their impact on Tunisian literature. Additionally, excerpts from Al-Shabbi's poems are provided and their artistic qualities are analyzed.

Keywords: Arabic literature, poetry, lyric poetry, landscape, literary process, rhetoric, spirituality, mentality, nature description.

KIRISH

Tunis she'riyati XX asr boshlariga kelib jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Tunis she'riyatida mavzu va shakl jihatdan yangilanish jarayoni boshlandi. O'rta asr arab adabiyotining an'anaviy qoliplari doirasida rivojlanib kelgan tunis she'riyati XX asr boshlarida jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Yevropaning madaniy ta'siri, milliy uyg'onish va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli tunis shoirlari o'z she'rlarida yangi mavzularni ko'tarib chiqdilar va she'rning shaklini yangilashga harakat qildilar. An'anaviylikdan voz kechib, shoirlar zamonaviy hayotning dolzarb muammolariga o'z she'rlarida o'rin berishga intildilar.

Abulqosim ash-Shabbiy (1906-1934) Tunis yangi she'riyatida tan olingan ilk namoyandalardan biri bo'lib, uning she'rlari Tunisning yangi milliy adabiyotini dunyoga tanitdi va arab tilining jozibadorligini ko'rsatib berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tunisning shimoli-g'arbida joylashgan Tavzar (توزر) vohasida dunyoga kelgan ash-Shabbiyning bolaligi bir joyda o'tmagan. Uning otasi qozi bo'lib, turli sabablarga ko'ra mansab darajasi bir me'yorda kechmagan, shuning uchun ham ish joyini tez-tez o'zgartirib turakdi. Natijada ash-Shabbiy uyda bilim olishga to'g'ri keldi, bo'lg'usi shoir otasi boshchiligidagi mumtoz adabiyot, ritorika va arab tili grammatikasi bilan tanishdi.

1918-yili ash-Shabbiy 12 yoshga to'lganida, oilasi poytaxt yaqinidagi Mijaz al-bab shahriga ko'chib o'tadi. Bu yerda u o'z bilimlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi, Qur'oni karimni o'rganadi, o'sha davrdagi fransuz mustamlaka hokimiyati tomonidan tashkil etilgan Arab byurosida fransuz tilini o'rgana boshladi.

1921-yilda ash-Shabbiy poytaxtdagi az-Zaytun diniy universitetiga o'qishga kiradi. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar uning talabalik davriga to'g'ri keldi. Shoir bu voqyealarning aynan avj olgan pallasida faol ishtirok etadi: adabiyot klubini tashkil etishda hamda "Islom yoshlari" tashkilotini tuzishda rahnamolik qiladi. Ash-Shabbiy o'sha davrda universitetdagi eski an'analar asosida olib borilayotgan ta'lim tizimiga qarshi o'z safdoshlari bilan birgalikda jiddiy kurash olib boradi. Bu esa uning talabalar orasidagi hurmat-e'tiborini oshiradi.

Shoirning she'riyatga qiziqishi o'sha yillarda boshlanadi. Alfred de Myusse, Alfred de Vini kabi fransuz romantiklari ijodi bilan tanishadi va natijada "O sevgi!" ("أيتها الحب", 1924) nomli ilk qasidasini yozadi.

1926-yil yosh shoirning bir qator she'rlari Tunisdagi "An-Nahda" (النهضة) gazetasida va "an-Nadim" (النديم) jurnalida chop etiladi. 1927-yilda Zayn al-Abidin as-Snusiyning "Hijriy XIV asr Tunis she'riyati" nomli antologiyasining birinchi jildida ash-Shabbiyning tanlangan ilk she'rlari nashr etiladi. Bu esa uning keng jamoatchilik oldida ilk bor e'tibor qozonishiga sabb bo'ladi.

Shu yil ash-Shabbiy sobiq Sodiqlar jamiyatida "Arablarining she'riy tasavvuri" mavzusida ma'ruza o'qiydi. Bu ma'ruza katta shov-shuvga sabab bo'ladi, yangi davr adabiyotining ahamiyatini aniqlab berishga urinish edi. Unda ash-Shabbiy adabiy merosga bo'lgan munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqish lozimligini va har bir davrning o'ziga xos ifoda shakli borligini isbotlab, jumladan, shunday deydi: "Arab adabiyoti haqida so'z ketganda, men adabiyotni o'tgan asrlar didiga, ruhiyatiga javob bermaydi deb aytolmayman, lekin u hozirgi zamon ruhiga, kayfiyatiga, bizning qiziqish va intilishimizga to'g'ri kelmay qoldi. Endi biz adabiyotga boshqacha nazarda qarayapmiz va undan hayotiy tushunchalarimizni topolmayapmiz, bizning nigohimiz boshqa dunyoga qaratilmoqda. Bu mutlaq notanish, hatto tushimizga ham kirmagan. Bizga shunday adabiyot kerakki, unda hayot haqidagi orzu-umidlarimiz, his-tuygularimiz jo'sh urmogi lozim. Asarlarni o'qiganda yurak tebranishini his etmog'imiz lozim. Aynan shu narsani biz eski arab adabiyotida ko'rmayapmiz. Endi bizga chuqur mazmunga ega kuchli adabiyot, his-tuygularimizga mos keluvchi, zamonaviy

hayotimiz uning qayg'u va orzulari bilan didimizga javob beradigan adabiyot kerak" [1:105-106]

Ash-Shabbiy 20 yoshida she'riyatga bo'lgan iste'dodini to'liq anglashiga qaramay, otasining qistovi bilan Tunis huquqshunoslik maktabiga o'qishga kirishga majbur bo'ladi va uni 1930-yili muvaffaqiyatli bitiradi. Chunki shoirning otasi o'g'lini o'z ishinig davomchisi deb bilardi.

Otasining tasodifiy o'limi ash-Shabbiy qalbida o'chmas iz qoldirdi. Shoir boshidan kechirgan iztiroblar ruhiy inqirozga olib keladi va sog'lig'iga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazadi. Bu esa, o'z navbatida, ash-Shabbiyning keyingi davr ijodida chuqur qayg'u va motamsaro kayfiyatda namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

30-yillarning boshi nafaqat yangi she'rlar yaratish davri bo'ldi, balki ash-Shabbiyning adabiy-tanqidiy faolligi avj oladi. U o'zining "Bizning she'riyat va shoirlarimiz", "She'riyat: u nima va uning mezonlari", "Bizning davr arab adabiyoti" nomli maqolalarida adabiyotni yangilash konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Shoir ijodi qisqagina hayotining so'nggi yillari sermahsul bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Apollo" jurnalining bosh muharriri Ahmad Zakiy Abu Shadiy (1892-1955) taklifi bilan ash-Shabbiyning devoni Misrda chop etiladigan bo'ldi. Bundan ilhomlangan shoir she'rlar to'plamini tuzishni boshlaydi. Uning qalami bilan "الصباح الجديد" (Yangi tong), "إلى لغة العالم" (Jahon tiliga), "تشيد الجبار" (Shoir qalbi), "قلب الشاعر" (Ulug'vorlik nashidasi) kabi eng go'zal she'rlari yaratiladi. Biroq to'satdan yurak xuruji zo'rayishi sababli shoir mo'ljallagan ish amalga oshmay qoladi. Ash-Shabbiy 1934-yil 9-oktabrda 28 yoshida Tunisda vafot etadi.

Shoirning umumarab xalqi hurmatiga sazovor bo'lgan "أغاني الحياة" (Hayot kuylari) devoni vafotidan 20 yil o'tgach, 1955-yili uning akasi Abulqosim Amin sa'y-harakatlari bilan dunyo yuzini ko'radi.

Ash-Shabbiy she'riyat jo'shqinligining o'ziga xosligini inson taqdiriga yangicha qarash, real haqiqatni ko'rish, hayot-mamot masalalariga emotsional baho berishda deb talqin qiladi:

يا صميم الحياة! إني وحيدٌ
يا صميم الحياة! إني فؤادٌ
يا صميم الحياة! قد وجم النَّاي
يا صميم الحياة! أين أغانيك
كنت في فجرِك، الموشح بالأحـ
حالم، ينهل الضياء، ويُصد
(الأشواق الثائفة) [3:164]

Ey hayot! Qorong‘u tunda adashdim tanho,
Qani sening (quyosh chiqish) erta tonging?
Ey hayot! Bechora yuragim mening tashna!
Qani sening sharoblaring!
Ey, hayot! Nay sokin bo‘ldi,
bulutlar o‘radi! Qani sening chaqmolaring?
Musibat girdobiga kishanlanib,
Bu olam azoblarim dardi bo‘ldi.
Meni ol bagringga, o‘tmish qa‘riga. [3:164
(1-jild)]

Real voqe‘likni xush ko‘rmaslik, yuksak
orzuga intilish behudaligini tushungan shoir
tabiat mavzusiga tez-tez murojaat qiladi. (“الغابة”
(O‘rmon), “النبى المجهول”, (Noma‘lum payg‘ambar
va boshq.) Aynan shu tabiatda ash-Shabbiy
munosib hayotda yetishmaydigan yuksak orzuni
(ideal) ko‘radi, bu esa kishini falsafaga chorlaydi.
Shu bois ham ash-Shabbiy lirikasida peyzaj,
ya‘ni tabiat tasviri nafaqat asosiy mavzu, balki
uning she‘riyatida sermazmun g‘oya sifatida ham
hukmronlik qiladi. Chunki real borliqni (hayotni)
rad etib, atrof muhitni adovatli deb qabul qilish
natijasida shoir she‘riyat ummoniga g‘arq bo‘lib,
tabiat bilan sirlashadi va shundan qalbi taskin
topadi.

سعيداً بوحدتي وانفرادي
بين الصنوبر الميَّاه
نفسى عن استماع فؤادي
لحديث الأزال والأباد
وأصغى إلى خرير السوادي
والنهر والضيء الهادي
بعيدا عن أمتي وبلادي
فهو حيّ يعيش عيش الجماد
من طريف مستحدث وتلاذ [3:167]

ليت لي أن أعيش في هذه الدنيا
أصرف العمر في الجبال وفي الغابات
ليس لي من شواغل العيش ما يصرف
أرقب الموت والحياة وأصغى
وأغنى مع البلبال في الغاب
وأناجي النجوم والفجر والأطياف
عيشة للجمال والفن أبغيتها
لا أعنى نفسي بأحزان شعبي
وبحسبي من الأسى ما
بنفسي

Yashasam qaniydi bu dunyoda men
yakkayu yolg‘izlikda bo‘lib baxtiyor.
O‘kazsam umrimni tog‘u o‘rmonlar
Bag‘ridagi suvlar va qarag‘ay aro.
Na hayot tashvishi meni chalg‘itar
Yurakdagi dardimga quloq solishdan.
Kuzatardim o‘lim birla hayotni,
azal va abad so‘zlarin tinglab,
Kuylardim o‘rmon bulbullari bilan
Vodiyning shovqiniqa quloq solib men.

Qutqaray yulduzlar, tong va qushlarni,
daryoni, sokin shu‘la nurlarin
Yashasin deb go‘zallik va san‘at uchun.
Millatimdan, yurtimdan uzoqda.
Xalqim qayg‘usi endi meni qiynamas,
chunki u tirik va jonsiz hayot surmoqda...
("Ahlam ash-shair") [3:167]

Tabiat manzarasi lirikasi bilan bir qatorda
an‘anaviy romantik mavzu shoirning she‘riyatida
("يا شعر", "أغنية الشاعر") ham alohida
ko‘zga tashlanadi:

تتغنى قطعة من وجودي
أبدي إلى صميم الوجود
فيك ما في جوانحي من حنين
فيك ما في خواطري من بكاء
فيك ما في مشاعري من وجوم
فيك ما في طفولتي من سلام
فيك ما في شببيتي من حنين
فيك إن عانق الربيع فؤادي
ويغنى الصباح أنشودة الحب
يا شعر! ("على مسمع")
الشباب السعيد

Sensan qalbim gavhari, ey she‘riyat!
Vujudimdan parchalarni kuylaguvchi.
Sendadir qalbimning sog‘inchlari,
Vujudim ichra abdiy bo‘lgan.
Sendadir yig‘lagan o‘ylarim,
Sendadir kuylagan hislarim.
Sendadir indamas his-tuyg‘ularim,
kuylamas ersada shodondur.
Sendadir bolaligim xotirjamligi,
tabassumi, shodu-hurramligi.
Sendadir o‘smirligim quvonchi,
qayg‘usi, shodligi va turg‘unligi. ("Ey
she‘riyat!") [3:153]

Shoir jamiyatdagi mavjud tanglikni yengish
yo‘lini izlashda hayotni o‘zgartirish zaruratini
anglaydi, o‘zining yuksak romantik orzusini
xalqning ozodligi, mustaqilligi bilan chambarchas
bog‘laydi, komil insonga xos munosib fazilatlarini
kashf etadi:

إذا الشَّعْبُ يَوْمًا أَرَادَ الْحَيَاةَ فَلَا بُدَّ أَنْ يَسْتَجِيبَ الْقَدَرُ
وَلَا بُدَّ لِلَّيْلِ أَنْ يَنْجَلِيَ وَلَا بُدَّ لِلْقَيْدِ أَنْ يَنْكَسِرَ

Agar xalq bir kun kelib, yangi hayot istab
qolsa,
Tole yordir unga, albat! Qora tun yorishar
albat!
Parchalanur zanjirlar ham! [4:231]

* * *

الأهوال أو تُفَزَّعُكَ الأحداثُ
الدُّنيا ولا يَخْدَعُكَ النَّفَاثُ
سَجَرَتْ مِنْ مَصِيرِهِ الْأَجْدَاثُ
سِرٌّ مَعَ الدَّهْرِ لَا تَصُدِّدُكَ
سِرٌّ مَعَ الدَّهْرِ كَيْفَمَا شَاءَتْ
فَالَّذِي يُزْهِبُ الْحَيَاةَ شَقِيٌّ

Zamon bilan hamnafas yursang,
taqdir hiylasi-yu qo‘rquvi
senga to‘siq bo‘lolmas aslo,
Zamon bilan tashlasang qadam,
hayotingda bo‘lmasin nelar,
shunda seni aldamas taqdir.
Kimki hayotdan qo‘rqsa,
u chindan ham baxtsizdir!
Hatto o‘liklar-da unga kuladi.
("Sir ma'a-d-dahr") [4:232]

XULOSA

Real haqiqatga qarshi jo‘shqinlik va uni revolyusion o‘zgartirish g‘oyasi ash-Shabbiy lirikasining murakkab jihatlaridan biri bo‘lib, shoir she‘riyatida unga nisbatan estetik zavq baxsh etadi va ijtimoiy-tarixiy ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, ash-Shabbiy biz an‘anaviy arab she‘r tuzilishi (yozish)ning Tunisdagi birinchi islohotchisi deb atashimiz mumkin. Uning she‘riyatida o‘rta asrlar poeziyasining qat‘iy qoidalaridan asta-sekin chekinish, shu bilan birga an‘anaviy she‘riy vaznlardan uzoqlashganini kuzatishimiz mumkin.

Ash-Shabbiy ijodining ahamiyati XX asr oxirlariga kelib munosib e‘tibor qozondi.

Ta‘lim, ilm-fan va madaniyat ishlari bo‘yicha Arab tashkiloti qarori bilan Abulqosim ash-Shabbiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan 1984-1985 yillar "ash-Shabbiy yillari" deb e‘lon qilindi. Uning xotirasiga bag‘ishlab turli xil anjumanlar, ilmiy konferensiya va she‘riy festivallar tashkil etildi. 1984-yilning noyabr oyida Tunis madaniyati va adabiyoti bo‘yicha yetakchilik qilgan "al-Fikr" jurnali shu sanaga bag‘ishlab maxsus sonini chop etadi. Shoirning sara she‘rlari rus, ispan, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilindi. Tunis Milliy madaniy qo‘mitasi ko‘makchiligida Abulqosim ash-Shabbiyning "Hayot kuylari" nomli devoni fransuz va ingliz tillarida ham nashr qilindi.

1989-yil shoirga "Tunis adabiyotshunosi va ma‘rifatparvari" davlat unvoni berildi. Uning "إرادة الحياة" (Hayot istagi) nomli she‘ri 1987-yildan boshlab Tunis prezidenti tashabbusi bilan rasmiy tarzda mamlakatning madhiyasiga aylandi.

Abulqosim ash-Shabbiy she‘rlarining ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilinishi, she‘riy asarlarining qayta-qayta nashr etilishi shoirning nafaqat Tunis she‘riyatida, balki butun arab adabiyoti olamida yuksak mavqeni egallaganidan daral bersada, uning qoldirgan adabiy merosi umumarab xalqi hurmatiga sazovor bo‘lib, hamon o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaganligidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR

1. Abulqosim ash-Shabbiy. Al-Xayal ash-shi‘riy indal-arab (الخيال الشعري عند العرب). – Tunis: Hindaviy, 2017 (1966-yilgi nusxadan qayta nashr qilingan).
2. Abulqosim ash-Shabbiy. Muzakkarot (مذكرات). – Tunis: Hindaviy, 2016. (1966-yilgi nusxadan qayta nashr qilingan).
3. Abulqosim ash-Shabbiy. Ag‘a-ni-l-hayat (أغاني الحياة) devoni, 1-2-3-4-5-6-jildlar. – Tunis, 1955.
4. Abulqosim ash-Shabbiy. Irodatul-hayat (إرادة الحياة) devoni. – Tunis, Hindaviy, 2017.
5. Arab adabiyoti. Monografiya (Mualliflar jamoasi). – Toshkent, 2016.
6. Xodjayeva R.U. Mumtoz arab adabiyoti janrlar tizimi va tipografiyasi. Monografiya, – T., 2016.
7. Ziyovuddinova M. Mumtoz arab adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. T., 2012.
8. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti. (XIX-XX asrlar). Darslik. – T., ToshDShU, 2009.
9. Madayeva M. A. Germenevtik tahlilning metodologik asoslari. // Исследование ренессанса Центральной Азии. 2022. – Т. 3. – №. 1.
10. Muxiddinova D.Z. XX asr arab hikoyanavisligi. – T.: G‘.G‘ulom, 2017.
11. Акбарова М.Х. Очерки истории арабской литературы (XIX-XX вв). Учебник. – Т., 2001.
12. Саидова Н. Арабская классическая литература. Учебное пособие. – Т., 2015.
13. Якушева Г.В. Тысяча лет культуры Востока. Часть I, II. Ближний и Средний Восток (арабоязычная, персоязычная и тюркоязычная литературы): Учебное пособие. – Москва, 2014. – 104 с.